

ABU HANIFA VA UNING “AL-OLIM VAL-MUTA’ALLIM” ASARI

Nasrullayev Izzatulloh Rustamjon o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: Sodiqov Jo‘rabek Sobirboyevich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish
ICESCO” dotsenti vazifasini bajaruvchisi,
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada hanafiylik mazhabi asoschisi No‘mon ibn Sobitning hayoti va ilmiy faoliyati, ta’lif qilgan asarlari hamda “al-Olim va-l-muta’allim”da islom aqidasi oid masalalarning yoritilishi, asarga yozilgan sharhlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: No‘mon ibn Sobit, sahoba, imon, mo‘min, kofir, kalom.

Musulmon ommasiga Imom A‘zam nomi bilan mashhur bo‘lgan No‘mon ibn Sobit ibn Zuvto 699-yil Kufa shahrida tug‘ilgan¹. U kishining otalari Sobit ibn Zuvto asli fors bobolari Marzubon esa, asli Qobul hozirgi Afg‘onistonning poytaxtidan bo‘lgan. Marzubon Umar (r.a)ning halifaligi davrida musulmon bo‘lib, Kufaga ko‘chib keladi va manashu yerda qo‘nim topadi².

Abu Hanifaning otalari Ali (r.a) bilan uchrashgan va o‘ziga hamda zurriyotiga baraka tilab, u kishini duolarini olgan edi³. Rivoyatlarga qilinishicha, Sobit ibn Marzubon Kufa shahrida birovning olmasidan bir tishlamni ruxsatsiz yegani uchun egasidan halollik so‘raganida, uning imoni pok ekanini ko‘rgan olma sohibi qizini nikohlab beradi va keyinchalik bu nikoh sabab Imom A‘zam dunyoga keldi.

Abu Abdulloh ibn Ahmad ibn Kidom aytadilar: “Darhaqiqat, Ali (r.a)ning duolari ijobat bo‘lib, Alloh Abu Hanifa (r.a)ni ulug‘ qilib qo‘ydi. Musulmonlarning aksari u zotga ergashdi va fiqhda u zotning fikrlariga tayanadi”⁴, deyдилar.

Abu Hanifa (r.a) yigitlik chog‘ida tijorat bilan shug‘ullangan. Bir kuni Imom Sha‘biy (r.a) bilan uchrashadi. U zot Abu Hanifa (r.a)dagi aql-farosatni ko‘rgach, uni ulamolar huzuriga borib ilm olishga targ‘ib qiladi. O‘smir Imom Sha‘biy nasihatiga

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqida ilmi va unga bog‘liq masalalar. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – B. 181.

² Muhammad Ayyub Homidov. Imom A‘zam. – Toshkent, Hilol-Nashr, 2022. – B. 42.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqida ilmi va unga bog‘liq masalalar. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – B.181.

⁴ Muhammad Ayyub Homidov. Imom A‘zam. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – B. 42-43.

amal qilib, ilm o'rganishga kirishadi. Yillar o'tib Abu Hanifa (r.a) yetuk alloma bo'lib yetishadi.

Abu Hanifa avval aqida va kalom ilmini o'rgangan, keyin esa fiqh ilmiga jiddiy kirishgan. U bu haqda: “Men kalom ilmi bilan insonlar meni ko'rganda “Mana bu falonchi”, deb barmoqlari bilan ishora qilib ko'rsatadigan darajaga yetgunimga qadar shug'ullanib keldim”⁵, deydi.

Abu Hanifa (r.a) 22 yoshida hijriy 102-yil fiqh ilmini o'rganishni boshlaydi. O'sha davrdagi Kufa faqihi Hammud ibn Abu Sulaymon (r.a)ning dars halqasiga qatnab, asosiy fiqh ilmlarini u zotdan o'rganadi. U ustozidan 18 yil ta'lim oladi. Abu Hanifa zehn-idrokda boshqa talabalardan ilg'or bo'lganligi uchun ustozini boshqalardan ustun ko'rar va shunday der edi: “Mening to'g'rimda – halqa o'rtasida Abu Hanifadan boshqasi o'tirmasin”. Abu Hanifa (r.a) shu darajaga yetdiki, ustozlarining xos shogirdiga aylandi⁶. Shu bilan birgalikda, ko'plab ustozlar bilan uchrashib, ulardan dars olishlik uning odat tusiga aylangan.

U zotning ustozlari adadi 4000 ta bo'lgan deyiladi. Ulardan yettitasi_sahoba (Hanafiy ulamolar taboqotlari borasida birinchi bo'lib kitob yozgan alloma, imom, muhaddis Abdulqodir ibn Abulvafo Qurayshiy Hanafiy Misriy “al-Javohiru al-muziya” asarida shunday deydi: “Imom Abu Hanifa (r.a)ning o'zi sahobalardan Abdulloh ibn Unays, Abdulloh ibn Juz Zabidiy, Anas ibn Molik, Jobir ibn Abdulloh, Ma'qal ibn Yasor, Vosila ibn Asqo' va Oysha bintu Ajarada (r.a)lardan hadis eshitganini zikr qilgan”⁷, to'qson uch nafari tobe'in qolganlari esa, taba'a tobe'inlardir⁸.

Mujtahid Imom Molikdan odamlar: “Abu Hanifa (r.a)ni ko'rganmisiz?”, deb so'rashganda, “Ha agar ushbu ustunni tilla demoqchi bo'lsa, hujjat topa oladigan odamligini ko'rdim”, deganlar.

Mujtahid Imom Shofe'iy: “Odamlar fiqhda Abu Hanifadan qarzdordirlar”, deganlar.

Ulamolar: “Agar diniy e'tiqod Zuhrogacha yiroqlashib ketsa ham, uni imom Abu Hanifa (r.a) yerga qaytarib keladi”, deyishgan.

Mashhur Imom Abdulloh ibn Muborak: “Fiqhda eng kuchli odam Abu Hanifadir. Unga o'xshashini ko'rmadim”, deganlar.

Abu Hanifa (r.a) hijriy 150-yil shavvol oyining o'rtalarida vafot etganlar. U kishining janozalariga kelgan kishilarning soni 50.000 ga yetgan. U zotga 6 marotaba janoza o'qiladi, oxirgi janozalarini o'g'illari Hammud o'qiganlar.

⁵ Muhammad Ayyub Homidov. Imom A'zam. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – B. 183.

⁶ Saymariy. Axboru Abiy Hanifata va ashobuh. – B.6 Xatib Bog'dodiy. Tarixu Bag'dod. J – 5. – B. 236.

⁷ H.Aminov, S.Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B. 22.

⁸ Muhammad Ayyub Homidov Imom A'zam. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – B. 54.

“Al-Olim val-muta’llim” (العالم والمتعلم) asari hanafiylik mazhabi asoschi Abu Hanifa va u kishining shogirdlari Abu Muti’ Balxiyning savol-javoblari asnosida ta’lif etilgan. Ushbu asarni bizgacha Abu Muqotil ibn Muslim Samarqandiy rivoyat qilib yetkazgan. Kitobdagi mavzulalar o’zida har bir musulmon kishi bilishi kerak bo’lgan masalalarni qamrab olgan.

Ushbu kitobni ba’zilar Imom A’zamga tegishli desa, yana ba’zilar u kishiga tegishli emas deydlar. Bu kitobning aniq Abu Hanifaga tegishli ekanligini isbot qilish uchun Mustafo Oshur ushbu asarni bevosita Imomi A’zamning o’zidan eshitgan Abu Muqotil ibn Muslim Samarqandiygacha bo’lgan roviylarni keltirib o’tgan.

Yuqorida aytib o’tilganidek, ushbu kitob ustoz va shogirdning savol javoblari asosida ta’lif etilgan. Abu Hanifa bu asarda ahli sunna aqidasi dalil o’laroq naqliy (Qur’oni karim va hadisi sharif), aqliy hamda qiyosiy tahillarni keltirib o’tgan.

Ushbu asar, o’zida ko’plab mavzularni qamrab olgan. Jumladan, sahobalar davrida bo’lmay, keyinchalik alohida fan sifatida shakillangan kalom ilmini o’rganish joiz ekanligi haqida savolga javoblar keltirilib o’tiladi:

“Agar senga biror kishi sahobalar bu ishni qilmaganlar, sahobalarga yetgan narsa senga kifoya qilmaydimi deb kalom ilmini o’rganishdan qaytarsa, sen ularga, agar men ham sahobalar davrida tug’ulganimda ularga yetgan narsa menga ham yetar edi, ammo ularning huzurida bo’lgan zot mening yonimda yo’qlar deb javob bergin)”, deyiladi;

“Musulmon kishiga to’g’ri va noto’ri yo’ldagi shaxsni ajrata olmasligi yoki adashgan toifalarning xatolarini bilmasligi ziyon ketiradimi, degan mazmundagi savolga Abu Hanifa: “To’g’rini xatodan ajrata olmasliging faqatgina bir tomondangina ziyoni yo’q. U ham bo’lsa sen uning gunohi uchun jazo olmaysan. Lekin, boshqa tomonlama ko’plab ziyonlari bor. Ularga kelsak, u ikkisini ajrata olmasang insonlar orasida ilmi yo’q ekan degan nom olasan, sendan biror masala so’rab kelinsa, to’g’ri qilyapmanmi yoki xatomi deb undan chiqish yo’lini bilmay qolasan. Yana bir ziyonini aytadigan bo’lsam, haqni nohaqdan ajrata olmasliging sababidan sen kimni Alloh uchun yaxshi ko’rish kerak ekanligini va yana kimni Alloh rizoligi uchun yomon ko’rish kerak ekanligi bilmay qolasan”, deya javob beradi⁹.

Ushbu javoblari bilan Abu Hanifa shogirdi, qolaversa barcha insonlarni ilm olishlikka targ’ib qiladi. G’azal mulkning sultoni Alisher Navoiy: “Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur”, deganidek, inson kuniga oz-ozdan bo’lsa ham ilm olishga harakat qilmog’i kerak.

Ushbu kitobda yana bir mavzu: “Alloh taolo insonlarni nimaga asosan mo’min yoki kofir deb biladi va odamlarchi?”, mazmunidagi savolga Abu Hanifa quyidagicha javob beradi: “Alloh taolo kimnidir kofir yoki mo’min deyishlikda bandalarnig qalbiga qaraydi, biz esa, zohiri (Allohni tillari bilan tasdiq qilish yoki inkor qilishlariga va

⁹ Abu Hanifa. Al-Olim val-mutaallim / Zohid Kavsariy tahqiqi ostida. – Qohira, 1368 h. – B. 10.

ibodatlariga qarab mo‘min yoki kofir deymiz” deb, bu fikrni aqliy dalillar bilan isbot qilib bergan. Jumladan, Nabiy (a.s) davrlarida musulmonlar munofiqlarni ham ularning tashqi qiyofalari va zohiran iqrar bo‘lganlariga qarab, garchi Alloh oldida kofir bo‘lsalar ham, ularni mo‘minlar deb ataganliklarini ta’kidlaganlar¹⁰.

“Al-Olim va al-muta’allim” asariga Shayx Abu Bakr Muhammad ibnul Hasan ibn Furak “Sharhu Al-Olim va al-muta’allim” nomli sharh yozgan. U 268 betdan iborat. Ushbu sharh yozish jarayonida muallif Abu Hanifaning qarashlariga muvofiq tarzda ahlu as-sunna val-jamoa e’tiqodiga zid bo‘lgan mu’tazila, xavorij, shia va shunga o‘xshash boshqa toifalarning fikrlarini keltirib, ularga batafsil raddiyalar bergan.

Foydalainlgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Hanifa. Al-Olim val-mutaallim / Zohid Kavsariy tahqiqi ostida. – Qohira, 1368 h. – 60. b.
2. H.Aminov, S.Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 435. b.
3. Muhammad Ayyub Homidov. Imom A’zam. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – 478. b.
4. Saymariy. Axboru Abiy Hanifata va ashobuh. – B.6 Xatib Bog’dodiy. Tarixu Bag’dod. J – 5. – 328. b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqoida ilmi va unga bog’liq masalalar. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 546. b.

Internet satlar

6. Islom.uz.
7. Muslim.uz.
8. Madrasa.uz.

¹⁰ Abu Hanifa. Al-Olim val-mutaallim / Zohid Kavsariy tahqiqi ostida. – Qohira, 1368 h. – B. 23-25.